

**KASB-HUNAR MAKTABLARIDA UMUMTA'LIM FANLARINI  
O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN  
SAMARALI FOYDALANISH.**

***MA'MURJONOV MUHAMMADDIYOR SALOHIDDIN O'G'LI***

*Bag'dod tumani 1-son kasb-hunar maktabi tarix fani o'qituvchisi*

***SOLIYEVA ZIYODA YUSUPOVNA***

*Bag'dod tumani 1-son kasb-hunar maktabi tarix fani o'qituvchisi*

***G'ULOMIDDINOV FOZILJON FARHODJON O'G'LI***

*Bag'dod tumani 1-son kasb-hunar maktabi tarbiya fani o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** Hozirgi globallashtiruv - axborot kommunikatsion texnologiyalari, inovatsiyalar rivojlangan bir davrda zamon bilan hamnafas yashash bugungi kun davr talabi hisoblanadi. Kasb hunar, maktablarida innovatsion texnologiyalardan samarali va unumli foydalanish, darsda o'zining ko'zlagan maqsadiga erishish uchun eng to'g'ri yo'ldir.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion texnologiya, globallashtiruv, jarayon, dars, bilim, kasb hunar, qobiliyat, intellektual, o'qituvchi.

Hozirgi globallashtiruv - axborot kommunikatsion texnologiyalari, inovatsiyalar rivojlangan bir davrda zamon bilan hamnafas yashash bugungi kun davr talabi hisoblanadi. Bunday zamonda kamol topayotgan bugungi kun yoshlari har tomonlama zukko, izlanuvchan, iqtidorli, intellektual qobiliyat sohibi bo'lib ulg'aymoqdalar. Shunday ekan kasb hunar maktablarida innovatsion texnologiyalardan samarali va unumli foydalanish, darsda o'zining ko'zlagan maqsadiga erishish uchun eng to'g'ri yo'ldir. Darslarda inovatsion texnologiyalarni qo'llash jarayonida o'qituvchi bir qancha ijobiy yutuqlarga erishadi. O'quvchilar darslarga qiziqib, faolroq qatnashadi va darsni tushunishlari osonlashadi. "Innovatsiya, bu-kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak"[1]-deb takidlagan edi muhtaram prizidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich. Bugungi kun o'qituvchisi o'z mutaxassislik fanini bilishi bilan bir qatorda, izlanuvchan, teran fikrlaydigan, zamon bilan hamnafas bo'lmog'i lozim.

Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation"- yangilik kiritish, ixtiro) ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllanirish imkoniyatini yaratadigan ta'limdir.[2] Darsda qo'llanilgan innovatsion metodlar o'quvchilar aqlini charxlashga, ularda ham yangi g'oyalarni

paydo bo'lishiga olib keladi. Interfaol metodlar o'quvchilarni fikrlash qobiliyatini ham shakillantiradi.

Kasb hunar maktablarida bilim olayotgan bugungi kun yoshlari, o'z tenqurlari-umumiy o'rta talim maktablarida bilim olayotgan do'stlariga nisbatan ancha afzalliklarga ega talim dargohida bilim olmoqdalar. Ular bu yerda kasb hunar o'rganish bilan bir qatorda umum ta'lim fanlarini ham o'zlashtiradi. Bu esa ularga ozgina qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuning uchun umum ta'lim fan o'qituvchisidan pedogagok mahorat talab etiladi. O'qituvchi dars o'tish jarayonida turli xil innovatsion metodlardan foydalanib, umum ta'lim fanlarini kasbiy fanlarga bog'lab o'tsa, o'quvchi darsga qiziqadi va dars mazmunli o'tadi. Har bir dars bir birini takroalamaydigan, yangi- yahgi g'oyalar, inovatsiyalarga boy bo'lishi muhim. Chunki o'quvchi darsda birxillikdan zerikishi mumkin. Bu esa darsni samaradorligini pasaytiradi. Eng avvalo o'qituvchining metodikasi kuchli bo'lsa, mavzuni o'quvchilarga yetgaza olish qobiliyati ham shunga yarasha samrali bo'ladi.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:

1. Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va b.  
 2. Interfaol ta'lim strategiyalari. "Aqliy hujum", "Tarmoqlar", "3x4", "Breyndayting", "Bahs-munozara", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va k. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

3. Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venndiagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.[3] Bu interfaol metodlardan o'z o'rnida, samarali foydalangan o'qituvchi dars o'tish jarayonida katta muoffaqiyatlarga erishib, ko'zlagan maqsadiga erishadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, XXI asr intellektual, salohiyatli yoshlar asridir. Bunday yoshlarga bilim berayotgan ziyolilar, o'zining avvalgi bilimlari bilan chegaralanib qolmay, yangilikka intilib, yangi-yangi g'oyalar, kashfiyotlar bilan, doimiy izlanishda bo'lishlari darkor. Bugungi kun o'qituvchisi zamon bilan hamnafas, o'quvchilardan bir qadam oldinda yurmog'i lozim. Chunki bugungi globallashuv davrida internet tarmog'lari ham ommalashgan. Shuning uchun hozirgi kun o'qituvchisidan ijodkorlikni, inovatsion g'oyalarni talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. SH. M. Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birgaquramiz". -T.:O'zbekiston 2017 y.
2. N.A.Muslimov "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik". O'quv-uslubiy majmua. Toshkent: 2016. 30-31b.
3. Alyaxanona Xurshida Axatovna" Kasb-hunar maktablarida umumta'lim fanlarining o'qitilish metodlari" INNOVATION SCIENCE AND RESEARCH INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 3 JULY 2023 ISSN: 2992-8877 | SCIENCEJOURNAL.UZ .88-bet